O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ A.A.Safarov
2025-yil “28” 08

AKADEMIK YOZUV FANINING

SILLABUSI
Kunduzgi bo‘lim rus guruhlar uchun

Bilim sohasi:	600000 –	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim sohasi:	610000 –	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim yo‘nalishi:	60610100 –	Axborot tizimlari va texnologiyalari

TOSHKENT-2025

Modul/FAN SILLABUSI
Zooinjeneriya fakulteti
60610100 –Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi

Fan nomi	Akademik yozuv
Fan turi	majburiy
Fan kodi	AKYI104
Yil	4
Semestr	1
Ta'lim shakli	kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar	120
Ma'ruza	-
Amaliy mashg'ulotlar	48 soat
Laboratoriya mashg'ulotlari	-
Seminar	-
Mustaqil ta'lim	72
Kredit miqdori	4
Baholash shakli	imtihon
Fan tili	O'zbek

Fanning maqsadi (FM)	
FM 1	bo'lajak mutaxassislarning akademik yozuvni mukammal egallash, o'zbek tilidagi og'zaki va yozma savodxonligini o'stirish, ularda o'z fikrlarini tushunarli va ravon tilda bayon qilish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish, atamalarni matnlar asosida o'rgatish va lug'atini tuzish, ilmiy maqolalarda sohaga oid so'zlardan to'g'ri foydalanish, ilmiy uslubning soha bo'yicha atamalarini mukammal o'rgatish hamda ilmiy nutqni shakllantirish.

Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar	
1	O'zbek tili;
2	Terminologiya;
3	Nutq madaniyati;

Mazkur Sillabus universitet Kengashining 2025-yil 28-avgustdagi 1 sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasining 2025-yil 26 avgustdagi 1 sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

Fakultet dekani: U.Ballasov

Kafedra mudiri: S.Xalmirzayeva

Tuzuvchi: S. Nurmanova

Ta'lim natijalari (TN)	
	Bilim jihatidan:
TN1	Kasbiy sohaga oid atamalar ishtirokida akademik yozuvga asoslangan matnlar, maqolalar, esselar yozishni haqidagi bilimga ega bo'lishi kerak;
TN2	Og'zaki va yozma nutqda sohaviy terminlarni qo'llashni bilishlari kerak;
TN3	Adabiy til me'yorlariga, imlo qoidalariga rioya qilgan holda ixtisoslikka oid ilmiy matnlar, ma'ruzalar tuzishni bilishlari lozim;
TN4	Uslublarni o'zaro farqlashlari va har bir uslubga tegishli bo'lgan matnlarni tuza bilishlari kerak;
	Ko'nikmalar jihatidan:
TN5	Akademik yozuvga asoslangan axborot materiallarini tahrir qila oladi.
TN6	Kasbiy sohaga oid ilmiy so'z va terminlarning izohini biladi va ularni o'z o'rnida qo'llay oladi;
TN7	Adabiy til me'yorlariga, imlo qoidalariga, nutqning asosiy yozma xususiyatlariga amal qilgan holda sohaga oid matnlarga to'g'ri baho bera oladi;
TN8	Kasbiy sohaga oid atamalarni qo'llagan holda esse va maqolalar yoza oladi va ilmiy uslubning boshqa uslublardan farqini ajrata oladi.

Fan mazmuni

Mashg'ulot shakli: amaliy mashg'ulot (A)

YOZMA SAVODXONLIK

A1	**Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi.** Lotin harflariga asoslangan o'zbek alifbosini yaratish yo'lidagi harakatlar. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish.

A2	**O'zbek yozuvlari tarixi.** O'zbek yozuvining rivojlanish bosqichlari. Yozuvning piktografik, ideografik va fonografik kabi turlari haqida ma'lumot berish.
A3	**Yozuv tamoyillari.** Yozuv tamoyillarining fonetik, morfologik, shakliy, tarixiy-an'anaviy va differentsial turlari haqida ma'lumot berish.
A4	**O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. (Harflar imlosi, asos va qo'shimchalar imlosi, qo'shib yozish).** O'zbek tilining imlo qoidalari va uning qismlari haqida ma'lumot beriladi. Mavzu sohaga oid matnlar singari so'zlar va atamalar orqali bayon qilinadi, mashqlar asosida mavzu tahlil qilinadi. Mavzu sohaga oid matnini tahlil qilish bilan tushuntiriladi. Harflar imlosi, asos va qo'shimchalar va qo'shib yozish qoidalari misollar orqali o'rgatiladi va mashqlar bajariladi.
A5	**Chiziqcha bilan yozish, ajratib yozish, bosh harflar imlosi, ko'chirish qoidalari.** O'zbek adabiy tilida chiziqcha bilan yozish. O'zbek adabiy tilida bosh harflar va qisqartma so'zlar imlosi. O'zbek adabiy tilida ko'chirish qoidalari. "Sohamiz ravnaqi" mavzusida matn tuzish. Mutaxassisning kasbiy, kompetensiyalar ro'yxatini tuzish va uni misollar bilan izohlab berish. Soha terminlari ishtirokida kichik matn tuzish.
A6	**Adabiy til me'yorlari va ularning turlari.** Fonetik va talaffuz me'yorlar. Imloviy va grammatik me'yorlar. Lug'aviy va semantik me'yorlar. Orfoepik va punktuatsion meyorlar. Adabiy til me'yorlarining o'ziga xos tomonlari haqida to'liq tushuncha berish.
A7	**Ilmiy matnlarda tinish belgilarining qo'llanilishi Ilmiy matnlarda tinish belgilarining qo'llanilishi.** Nuqta, ikki nuqta, ko'p nuqta, vergul, nuqtali vergul, so'roq va undov belgilari, tire, qo'shtirnoq va qavslar matnlar orqali tushuntiriladi.

- fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa.

v) 3 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilsa;
- bayon qilish ravon bo'lmasa;
- fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

g) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:

- fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;
- fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
- fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
- fanda doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.
-

Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot

Muallif:	**S. Nurmanova** – Toshkent davlat agrar universiteti, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi.
E-mail:	Elektron pochta: salomatnurmanova2@gmail.com
Tashkilot:	**Toshkent davlat agrar universiteti, Zooinjeneriya fakulteti**
Taqrizchilar:	Keldiyorova G. – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. Alavuddinova N. – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Axborot manbalari:	
1	http://old.natlib.uz.
2	https://lex.uz/docs/.
3	https://yuz.uz/news/.

Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlarini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

a) 5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini to'liq yorita olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qyo'masa;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
- fanga tegishli maavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;
- tarixiy jarayonlarni sharhlay bilsa;

b) 4 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunining tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;
- fan mazmuning amaliy ahamiyatini tushungan bo'lsa;
- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirasida bajarsa;
- fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;

A8	**Ilmiy matnlarda so'roq, undov belgilari, tire qo'shtirnoq va qavsning qo'llanilishi.** Ilmiy matnlarda so'roq, undov, tire, qo'shtirnoq va qavs belgilarining ifodalanishi topshiriq va mashqlar orqali tushuntiriladi.
A9	**Nutq uslublari. So'zlashuv, badiiy, publitsistik, ilmiy va rasmiy-idoraviy uslublar.** Nutqning uslublarga bo'linishi yuzasidan tushuntirish beriladi. Qishloq xo'jaligi sohasida rasmiy-idoraviy hujjatlar, rasmiy ish qog'ozlari asosida tahlil qilinadi. Soha bilan bog'liq tashkilotlarning nizomi, shartnomasi, yo'riqnomalari nusxalari hamda rahbar nomiga yozilgan ariza, tilxat, bildirishnoma, hisobot singari hujjatlar nusxalari namuna sifatida ko'rsatiladi.

AKADEMIK YOZUV SHAKLLARI

A10	**Akademik yozuv va axborot tushunchasi.** Talabalarga matnli, grafikli, tovushli, videolavhali, raqamli axborot turlari haqida ma'lumot beriladi.
A11	**Axborotning turlari va xususiyatlari.** Talabalarga axborotni klassifikatsiya qilish haqida ma'lumot beriladi va misollar orqali tushuntiriladi.
A12	**Matn va uning turlari. Matn ustida ishlash.** Matnni qisqartirish va kengaytirish yo'llari, matnning asosiy va yordamchi qismlarini farqlash, ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi leksik-sintaktik vositalar mashqlar yordamida tushuntiriladi.
A13	**Reja va uning turlari.** Talabalarga reja va uning turlari haqida ma'lumot berish. Sodda va murakkab reja tuzishni o'rgatish.
A14	**Soha terminlari ishtirokida matn tuzish.** Talabalarni o'z sohalari bo'yicha ilmiy maqolalar, esselar yozishga o'rgatish hamda soha so'z va atamalarni o'z o'rnida qo'llash.

A15	**Referat va uning turlari.** Talabalarga refrerat haqida malumot berish. Referatga ajratilgan mezonlar haqida tushuntirish. Imloviy va uslubiy jihatdan to'g'ri bo'lgan referat yozishga o'rgatish.
A16	**Annotatsiya va uning turlari.** Adabiy til imlo qoidalariga amal qilgan holda annotatsiya matnlarini yozishni o'rgatish. Matn annotatsiyasining to'liq tuzilishi haqida ma'lumot berish.
A17	**Esse haqida tushuncha. Esse turlari.** Talabalarga mustaqil ravishda esse yozish qoidalari tushuntiriladi. Sohaviy ilmiy terminlarning qo'llanilishini tushuntirish va lug'atini tuzish.
A18	**Taqriz matni. Taqrining turlari.** Talabalarga taqriz va uning turlari haqida ma'lumot berish, taqrizga qo'yilgan talablar bilan tanishtirish.
A19	**Tezis va uning turlari. Tezis yozish uslubi.** Tezis va uning turlari va uslubi haqida to'liq ma'lumot berish, sohaviy terminlash ishtirokida mustaqil tezis yozishga o'rgatish.
A20	**Ilmiy uslub janrlari. Kurs ishi va unga qo'yiladigan talablar.** Talabalarga kurs ishi va unga qo'yilgan talablar haqida ma'lumot berish. Mustaqil ravishda kurs ishini yozishga o'rgatish jarayonida imloviy va uslubiy jihatlariga e'tibor berish.
A21	**21-mavzu. Doklad. Doklad tuzilmasi.** Talabalarga doklad haqida ma'lumot berish. Kasbiy sohaga oid bo'lgan atamalar ishtirokida doklad yozishni o'rgatish.
A22	**22-mavzu. Taqdimot nutqi. Taqdimotning tarkibi.** Talabalarga taqdimot va uning tarkibi haqida ma'lumot beriladi va misollar orqali tushuntiriladi.
A23	**Ilmiy-tadqiqot matnini yaratish. Iqtibos keltirish.** Talabalarga ilmiy tadqiqot ishini yozishdagi ketma-ketlik haqida ma'lumot beriladi. Ilmiy-tadqiqot ishini yaratishda iqtibos keltirilishi mashqlar yordamida tushuntiriladi.
A24	**Ilmiy matnda dalillar, obyektlar, jarayonlar va xulosalarning berilishi.** Talabalarga ilmiy matn yaratishda dalil va asoslar, obyektlar,

	jarayonlar va xulosalarning imloviy xatolarsiz yozilishini misollar yordamida tushuntiriladi.
	Mustaqil ta'lim (MT)
MT1	O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari asosida matn tuzish.
MT2	Turli uslublarga doir matnlarni tahlil qilish.
MT3	Akademik ilmiy maqola yozish.
MT4	Akademik yozuvga asoslangan ilmiy matn tuzish.
MT5	Adabiy til me'yori.
MT6	Esse yozish.
MT7	Referat yozish.
MT8	Taqriz yozish.
MT9	Soha bo'yicha terminlar lug'atini shakllantirish.
	Asosiy adabiyotlar:
1.	S.Sh.Xolmirzayeva, "O'zbek tilini sohada qo'llash". Darslik. Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent, 2025.
2.	Sh.Xolmirzayeva, "O'zbek tili".O'quv qo'llanma. Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent, 2025.
3.	F.Ashurova "O'zbek tilinining sohada qo'llanilishi". O'quv qo'llanma.Toshkent, "Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi" MChJ. 2023.

	Qo'shimcha adabiyotlar:
1.	S.Sh.Xolmirzayeva, "O'zbek tilini sohada qo'llash". Darslik. Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent, 2025.
2.	S.Sh.Xolmirzayeva, "Davlat tilida ish yuritish".O'quv qo'llanma. Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent, 2025.
3.	"O'zbek tilining izohli lug'ati", 5 jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2020.